

**EDUCATIONAL POLICY AND REFORM DEVELOPMENT TRENDS IN THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN****Khujanazarova Fotimaxon Ma'ruf qizi**

E-mail: fotimaxonmarufovna@gmail.com

Khujanazarova Zuhraxon Ma'ruf qizi

E-mail: zuhrahonmarufovna@gmail.com

4th year student, Faculty of Tourism and Economics, Kokand University

ANNOTATION

This article systematically analyzes the large-scale reforms implemented in the education system of the Republic of Uzbekistan, their priority areas and modern development trends. Within the framework of the study, the processes of modernization of the education sector, the introduction of digital technologies, improving the professional capacity of teachers, and the integration of international educational standards and best practices into the national education system are scientifically covered. The article also provides an in-depth analysis of the development of the preschool education system, improving the quality of general secondary education, structural changes being implemented in higher education institutions, and improving the educational process based on modern pedagogical approaches. State policy, regulatory and legal frameworks, and practical measures aimed at increasing the efficiency of the education system are also considered. In addition, special attention is paid to the issues of adapting the education system to the requirements of the labor market, training competitive personnel with practical skills, and the widespread introduction of innovative approaches. The results of the study show that the reforms being carried out in the education sector in the Republic of Uzbekistan are developing systematically, gradually, and sustainably. These reforms play an important role in ensuring the social and economic development of the country.

Keywords: education system, educational reforms, Republic of Uzbekistan, quality of education, digitalization, modernization, higher education, educational policy, innovative development, international experience, personnel training.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM SIYOSATI VA ISLOHOTLARNING
RIVOJLANISH TENDENSIYALARI****ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar, ularning ustuvor yo'nalishlari hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida ta'lim sohasini modernizatsiya qilish jarayonlari, raqamli texnologiyalarni joriy etish, o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish hamda xalqaro ta'lim standartlari va ilg'or tajribalarni milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish masalalari ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, maqolada maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirish, oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar hamda ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish yo'nalishlari chuqur tahlil etiladi. Ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat siyosati, normativ-huquqiy asoslar va amaliy chora-tadbirlar ham ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, ta'lim tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish, amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hamda innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning tizimli, bosqichma-bosqich hamda barqaror ravishda rivojlanib borayotganini ko'rsatadi. Ushbu islohotlar mamlakatning ijtimoiy hamda iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlari : ta'lim tizimi, ta'lim islohotlari, O'zbekiston Respublikasi, ta'lim sifati, raqamlashtirish, modernizatsiya, oliy ta'lim, ta'lim siyosati, innovatsion rivojlanish, xalqaro tajriba, kadrlar tayyorlash.

KIRISH QISMI

Aholi turmush farovonligi darajasi faqat iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari bilangina emas, balki ijtimoiy sohalarning rivojlanish darajasi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Chunki aynan ijtimoiy tizim orqali davlatning insonparvarlik siyosati, fuqarolarga bo'lgan e'tibori va g'amxo'rliqi yaqqol namoyon bo'ladi. Ijtimoiy sohaning taraqqiy etganlik darajasi mamlakatdagi siyosiy barqarorlik, psixologik muhit va aholining umumiy kayfiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi hududlarning iqtisodiy salohiyatini belgilovchi muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

Sovetlar davrida esa jamiyat hayotining barcha yo'nalishlari hukmron mafkura ta'siriga tushib qoldi. Partiyaning yakka hokimligi natijasida ijtimoiy, madaniy va ilmiy sohalar qat'iy nazorat ostiga olindi. Ayniqsa, ta'lim tizimi, ilm-fan va madaniyat orqali inson ongiga ta'sir ko'rsatish siyosati kuchaydi. Natijada xalqning ilm olishga, ma'rifat va milliy qadriyatlarga bo'lgan tabiiy intilishi siyosiy maqsadlar yo'lida yo'naltirildi. Bu davrda yangi ziyoli qatlamni shakllantirish va mavjud ziyolilarni siqib chiqarish siyosati olib borildi. Savodxonlik darajasining oshishi, ilmiy muassasalar va ta'lim tizimining kengayishi bilan bir qatorda, ularning faoliyati ustidan kuchli mafkuraviy nazorat o'rnatildi. Byurokratik boshqaruv tizimi mustahkamlanib, texnik taraqqiyotga yo'naltirilgan rivojlanish jarayonlari ham aynan shu nazorat bilan uyg'unlashgan holda kechdi. Savodsizlikni tugatish borasida sezilarli natijalarga erishildi. Xususan, 1941-yilga kelib maktablar soni 5500 dan ortiqni tashkil etib, ularda 1-milliondan ziyod o'quvchi tahsil oldi. «*Madaniy inqilob*» siyosati esa jamiyatning barcha jabhalarini qamrab olib, ayniqsa ta'lim tizimida siyosiy tarbiyani kuchaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Ikkinchi jahon urushi oqibatida yuqori malakali mutaxassislar sonining keskin kamayishi kuzatildi. Bu holat urushdan keyingi davrda oliy ta'lim tizimini jadal rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirdi. Natijada oliy ta'lim muassasalari soni va ularda tahsil olayotgan talabalar miqdori izchil oshib bordi. Masalan, 1950–1953-yillarda 16 mingdan ortiq mutaxassis tayyorlangan bo'lsa, 1959-yilda 30 dan ortiq oliy o'quv yurtlarida 88 ming talaba ta'lim oldi. 1985-yilga kelib esa oliy ta'lim muassasalari soni 40 dan oshib, ularda tahsil olayotganlar soni 280 mingdan ziyodga yetdi. Umuman olganda, mazkur davrda ta'lim tizimi miqdor jihatdan kengaygan bo'lsa-da, uning mazmuni va yo'nalishi asosan mafkuraviy talablar asosida shakllantirilgan edi.

Natijalar va muhokama

Biroq, qayd etilgan o'zgarishlar asosan miqdoriy ko'rsatkichlar darajasida kuzatilgan bo'lib, masalaning eng muhim jihati - oliy ta'lim muassasalarini tamomlayotgan mutaxassislarning bilim darajasi va kasbiy tayyorgarligi bilan bog'liq muammolar saqlanib qolayotgan edi. Shu bilan birga, jahon ilm-fan tizimida munosib o'rin egallagan olimlar qatlamining shakllangani hamda texnika sohasida sezilarli yutuqlarga erishilganini inkor etib bo'lmaydi. Ammo markazlashgan ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan siyosiy va iqtisodiy boshqaruv tizimi mazkur yutuqlarni amaliyotga, xususan xalq xo'jaligiga samarali tatbiq etishga to'sqinlik qildi. Innovatsion ishlanmalar murakkab byurokratik jarayonlardan o'tish jarayonida o'z dolzarbligini yo'qotib borar edi. Bundan tashqari, ilm-fanning ko'plab yo'nalishlari harbiylashtirilgan maqsadlarga yo'naltirildi. Shu bilan birga, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarning mafkuraviy qolipga solinishi kuchaydi, xalqaro ilmiy aloqalar esa qat'iy nazorat

ostida olib borildi. O'zbekistonda malakali kadrlar tayyorlash, aholining ilmiy-madaniy saviyasini oshirish va ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish borasida muayyan ijobiy tajriba va salohiyat shakllangan edi. Shu bois, mamlakat oliy ta'lim tizimi oldida mavjud ilg'or tajribalarni saqlab qolish, ularni mazmunan boyitish hamda global ta'lim makonida munosib o'rin egallash kabi dolzarb vazifalar turar edi. Ayniqsa, uzoq yillar davomida mafkuraviy bosim ostida bo'lgan fan, madaniyat va ta'lim sohaslarini erkinlashtirish, ularni yangi qadriyatlar va innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish mustaqil O'zbekiston jamiyati oldida turgan muhim va mas'uliyatli vazifalardan biri edi. Mustaqillik arafasida respublika rahbariyati ilm-fan va ta'lim tizimini tubdan isloh qilish hamda modernizatsiya qilish zaruratini chuqur anglab yetdi. Xususan, Islom Karimov 1988-yil 20-noyabrda O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasida bo'lib o'tgan uchrashuvda ilm-fan rivojini yangi sifat bosqichiga ko'tarish zarurligini alohida ta'kidlagan edi. U ilmiy faoliyatni ma'muriy-buyruqbozlikdan holi etish, olimlarning ijodiy izlanishlariga keng yo'l ochish hamda fan natijalarini mamlakat taraqqiyotining strategik asosiga aylantirish lozimligini qayd etdi. Shuningdek, iste'dodli yoshlarni ilm-fanga jalb etish va buning uchun ta'lim tizimini, jumladan umumta'lim maktablari va oliy o'quv yurtlari faoliyatini tubdan takomillashtirish zarurligi ta'kidlandi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda eng muhim islohotlar amalga oshirilgan sohalardan biri aynan ta'lim tizimi bo'ldi. Ilm-fanga davlat siyosati darajasida e'tibor kuchaytirildi, zamonaviy taraqqiyot talablariga javob beruvchi yangi ilmiy yo'nalishlar shakllantirildi. Ayniqsa, tabiiy va aniq fanlarni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Bu jarayonda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi ning o'rni beqiyos bo'ldi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarning ilmiy tadqiqot faoliyatiga keng jalb etilishi ijobiy natijalar bera boshladi. Natijada, *«fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi»* konsepsiyasi mamlakatda ilm-fan rivojining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi va bu yondashuv innovatsion taraqqiyotning muhim omiliga aylandi.

Ta'lim va ilm-fan sohasidagi islohotlar va ularning samaradorligi

1992-yilda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining farmoniga muvofiq ravishda Respublika Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy Attestatsiya Komissiyasining tashkil etilishi ilmiy-tashkiliy tizimni ya'nada takomillashtirishga xizmat qildi. Mazkur islohot natijasida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining ilmiy salohiyati va institutsional mavqei sezilarli darajada mustahkamlandi. O'zbekiston Respublikasida ilmiy va ta'lim sohaslarini modernizatsiya qilish yo'lidagi muhim bosqichlardan biri sifatida Prezidentning 2002 – yil 20 – fevraldagi «Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risidagi» farmoni alohida ahamiyat kasb etdi. Mazkur hujjat ilmiy izlanishlar hamda texnologik ishlanmalar sifatini oshirish talablariga mos ravishda ilmiy – texnik va innovatsion faoliyatni yanada rivojlantirish shuningdek, mamlakat ilmiy salohiyatidan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlashga xizmat qildi. Respublikadagi ilmiy – tadqiqot majmuasi keng qamrovli tizimni tashkil etib, u O'zbekiston Fanlar akademiyasi, oliy ta'lim muassasalari hamda turli tarmoqlarga tegishli 350 dan ortiq ilmiy muassasalarni o'z ichiga oladi. Ushbu tizim tarkibiga ilmiy – tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlarining ilmiy bo'linmalari, loyiha – konstruktorlik tashkilotlari, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari, tajriba korxonalari hamda axborot – hisoblash markazlari kiradi. 2006-yil natijalariga ko'ra, mamlakatda turli fan yo'nalishlari bo'yicha 34 mingdan ortiq ilmiy xodim faoliyat yuritgan bo'lib, ulardan qariyb 2,4 ming nafari fan doktori va yana shuncha qismi fan nomzodlaridan iborat edi. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi xalq ta'limi tizimining rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Xususan, milliy pedagogik tafakkur asosida ta'lim jarayonini yangilash va sog'lomlashtirish bosqichi boshlandi. Ilgari tashqi ilmiy – ma'rifiy makondan ma'lum darajada uzilgan milliy pedagogika endilikda jahon ta'lim tizimiga integratsiyalasha boshladi. Natijada, xalqaro tajribani o'rganish, ilg'or yutuqlarni o'zlashtirish va ularni milliy an'analar bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlari kengaydi. Ta'lim

tizimini tubdan yangilash maqsadida hukumat tomonidan tarixiy tajribalar chuqur o'rganilib, kompleks islohot dasturi ishlab chiqildi. Mazkur islohotlar ta'lim tizimini demokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirish, uning moddiy-texnik bazasini zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish hamda mamlakatning intellektual salohiyatini mustahkamlashga qaratildi.

1992-yil 2-iyulda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risidagi» qonun ta'lim sohasida erishilgan ijobiy natijalarni saqlab qolishda muhim rol o'ynadi. Biroq ushbu hujjat ta'lim tizimini kompleks islohot etish, ta'lim jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash hamda bosqichlararo uzviylikni mustahkamlash bilan bog'liq muammolarni to'liq hal eta olmadi. Shu sababli, 1997-yil 29-avgustda yangi tahrirdagi Ta'lim to'g'risida qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilinib, tizimli o'zgarishlarga asos yaratildi. Mazkur Milliy dastur kadrlar tayyorlash tizimini tubdan islohot qilishning konseptual asoslarini belgilab berdi. Unda muammolar tahlili, maqsad va vazifalar, amalga oshirish bosqichlari, ilmiy model hamda rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari batafsil yoritildi. Ushbu dastur Ta'lim to'g'risida qonun mazmun-mohiyatini o'zida mujassam etgan holda, ta'lim tizimini istiqbolli rivojlantirishga xizmat qiluvchi kompleks strategiya sifatida namoyon bo'ldi.

Natijada, mazkur islohotlar va dasturlar izchil amalga oshirilishi tufayli O'zbekiston Respublikasida ta'lim va tarbiya sohasida tub burilish yuz berdi. Zamonaviy talablar asosida uzluksiz ta'lim tizimi shakllantirildi, kadrlar tayyorlash sifati sezilarli darajada oshirildi hamda mamlakatning ilmiy – ma'rifiy salohiyati yangi bosqichga ko'tarildi.

Tadqiqotning natijaviy-analitik bo'limi

Mamlakatimizda shakllanayotgan zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar maktabgacha ta'lim tizimining tubdan yangilanishi va diversifikatsiyasiga olib keldi. Xususan, maktabgacha ta'lim muassasalarining muqobil shakllari – xonadon bog'chalari, fermer xo'jaliklari huzuridagi bog'chalar hamda «bog'cha–boshlang'ich maktab» integratsiyalashgan majmualari keng rivojlanmoqda. Bu esa ta'lim xizmatlarining moslashuvchanligi va hududiy qamrovini kengaytirishga xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda xususiy sektor ulushining ortib borayotgani ham tizimning raqobatbardoshligini oshirish va xizmatlar sifatini yaxshilashda muhim omil bo'lmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimining boshqaruv modeli ham o'ziga xos xususiyat kasb etib, u alohida davlat tuzilmasi sifatida Maktabgacha ta'lim vazirligi tasarrufiga o'tkazildi. Bu qaror, avvalo, sohaning keng ko'lamini inobatga olgan holda, uni yanada samarali boshqarish va rivojlantirishga qaratildi. 2006-yil ma'lumotlariga ko'ra, respublikada 6565 ta maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyat yuritib, ularda 571 mingdan ortiq bola tarbiya olgan, 59 mingdan ziyod pedagog kadrlar xizmat qilgan. Biroq qamrov darajasi atigi 21,4 foizni tashkil etgani tizim oldida turgan muhim vazifalarni ko'rsatib berdi. O'zbekiston Respublikasi 2008-yil 28-yanvardagi Farmoni bilan Toshkent Davlat Universitetiga «Milliy universitet» maqomi berildi. Respublikamizda emas balki Markaziy Osiyoda oliy ta'limni tashkil topishida va rivojlanishida Toshkent Davlat Universiteti katta o'rin tutadi. Davrlar mobaynida ushbu universitetning qator fakultetlari negizida bir nechta mustaqil institutlar tashkil topdi, mustaqillik yillarida oliy ta'lim rivojiga munosib xissasini qo'shdi va kadrlar tayyorlash Milliy Dasturining ijrosida haqiqiy bayroqdorlik qildi. Mamlakatda maktabgacha ta'limni rivojlantirish yangi bosqichga Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yil 30-sentabrda qabul qilingan qaror asosida o'tdi. Mazkur islohotlar natijasida qisqa muddat ichida yuzlab yangi bog'chalar tashkil etildi, mavjud muassasalar modernizatsiya qilindi hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalar joriy etildi. Xususan,

Shu yil davomida maktabgacha ta'lim muassasalari soni keskin oshib, qamrov darajasi sezilarli ravishda kengaydi, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichi 70 % yuqori darajaga yetkazilishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Prezidentning Oliy Majlisga Murojaatlarida ta'lim tizimini rivojlantirish strategik vazifa sifatida belgilab berildi. Unda uzluksiz ta'lim tamoyili asosida ta'limning aynan maktabgacha bosqichdan boshlanishi va inson hayoti davomida izchil davom etishi zarurligi alohida ta'kidlandi. Bu yondashuv jamiyat taraqqiyotida inson kapitalining hal qiluvchi rolini e'tirof etadi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimi esa uzluksiz ta'limning markaziy bo'g'ini sifatida o'quvchilarga zarur bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. U nafaqat nazariy bilimlarni, balki mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va amaliy faoliyat malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Ta'lim tizimining keyingi bosqichi bo'lgan o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi ham mustaqillik yillarida jadal rivojlandi. 1990-yillar oxiri va 2000-yillar boshlarida akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tarmog'i kengaytirilib, zamonaviy infratuzilma yaratildi. Bu jarayon yoshlarni mehnat bozoriga mos kasbiy tayyorlashni ta'minlashga qaratildi. Oliy ta'lim tizimi esa mamlakat taraqqiyotining strategik omili sifatida tub islohotlar jarayonidan o'tdi. Bugungi kunda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rahbarligida oliy ta'lim muassasalari faoliyati takomillashtirilib, xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda. 2017-yillar davomida oliy ta'lim muassasalari soni keskin oshib, xorijiy universitetlar filiallari tashkil etildi, kredit-modul tizimi joriy etildi hamda talabalar qamrovi bir necha barobarga kengaydi. Zamonaviy bosqichda ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim zimmasiga nafaqat malakali mutaxassis tayyorlash, balki Vatan ravnaqi yo'lida fidoyilik ko'rsata oladigan barkamol shaxsni shakllantirish vazifasi yuklatilgan.

Davlatimiz rahbarining 2018-yil 25-sentyabrdagi farmoni bilan Vazirlar Mahkamasi huzurida «*El yurt umidi*» jamg'armasi tashkil etildi. Ushbu jamg'arma chet ellarda faoliyat ko'rsatayotgan salohiyatli vatandagi olimlar, mutaxassislar va ekspertlarini O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarga faol jal etishga shuningdek iqtidorli yoshlarning rivojlangan mamlakatlarda ta'lim olish, etakchi xalqaro institutlar xamda xorijiy tashkilotlarda malaka oshirishda ko'maklashadi. Mustaqilligimiz kelajagi yoshlar qo'lida ekan bilimdon, ma'naviyatli, mustaqil fikrlab, mustaqil ish yuritadigan yoshlarni, mamlakat rahbari ta'biri bilan aytganda, jamiyatimizning eng katta boyligi, millatimizning intellektual, aql-zakovat boyligi bo'lmish yigit-qizlarimizni tarbiyalash mamlakatimiz hayotida birinchi darajali vazifa ekanligi ko'p bor ta'kidlandi. Davlatimiz rahbari 2019-yil 24-may kuni O'zbekiston Milliy universitetida oliy ta'lim va ilm-fan sohasi vakillari bilan uchrashuv o'tkazib, unda ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish hamda ta'lim tizimini sifat jihatidan tubdan takomillashtirish masalalari atroflicha muhokama qilindi. Ushbu yo'nalishlarni rivojlantirish maqsadida moddiy-texnik bazani mustahkamlash uchun 6 million AQSH dollari miqdorida moliyaviy resurs ajratish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Shuningdek, olimlar va pedagoglarning ijtimoiy sharoitlarini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilib, ular uchun zamonaviy turar joylar barpo etish yuzasidan ko'rsatmalar ishlab chiqildi. Natijada Talabalar shaharchasida 6 ta 9 qavatli uy, jami 216 ta xonadon foydalanishga topshirildi. Prezident Olmazor massiviga tashrifi davomida ushbu uy-joylarda yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishib, xonadon egalari bilan muloqot qildi hamda ilm ahli — mamlakatning intellektual salohiyati va kelajagini belgilovchi muhim kuch ekanligini alohida ta'kidladi. Ularning mehnatini munosib qadrlash zarurligini qayd etib, sifatli ta'lim va tarbiya aynan bilimli insonlar orqali ta'minlanishini urg'uladi. Mazkur tashrif doirasida Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyati bilan tanishuv chog'ida davlat rahbari yuqori texnologiyalar sohasida mavjud ortda qolishni bartaraf etish, barcha sohalarni modernizatsiya qilish hamda global ilmiy va texnologik jarayonlar bilan uyg'unlashish zarurligini ta'kidladi. Shu maqsadda mazkur vazirlik tashkil etilib, unga aniq amaliy natijalarga erishish vazifasi yuklatildi. Bugungi kunda ushbu vazirlik ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash bo'yicha samarali mexanizmlarni joriy etmoqda. Natijada innovatsion g'oya va loyihalar qo'llab-quvvatlanib 28,2 milliard so'm

miqdorida 31 ta Startup loyiha moliyalashtirildi. Xalqaro hamkorlik doirasida esa Germaniya, Rossiya va Belarus kabi davlatlar bilan hamkorlikda 9,6 milliard soʻmlik 38 ta qoʻshma loyiha amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, yoshlarning sifatli taʼlim olishiga alohida eʼtibor qaratilib, ularning asosiy maqsadi imtihondan oʻtish emas, balki chuqur bilim va kasbiy kompetensiyaga ega boʻlish ekanligi taʼkidlandi. Bu esa mamlakatning istiqboli aynan bilimli va salohiyatli yoshlar bilan bogʻliqligini koʻrsatadi. 2020-yil 20-iyul holatiga koʻra, respublika boʻyicha jami 1.452.789 nafar abituriyent, shu jumladan 530.496 nafar joriy yil bitiruvchilari roʻyxatdan oʻtganligi, mamlakat aholisining oliy taʼlimga boʻlgan qiziqishi ortib borayotganini va uning kelajak taraqqiyotidagi ahamiyatini chuqur angelayotganini koʻrsatadi. Oliy taʼlim tizimidagi keng koʻlamli islohotlar ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash bilan uygʻun holda amalga oshirildi. Jumladan, bolalar mehnatiga barham berildi hamda paxta «umummilliy harakati» tizimi isloh qilindi. Shu bilan birga, oʻqituvchilar, sogʻliqni saqlash xodimlari, talabalar va boshqa davlat xizmatchilarining majburiy va bepul mehnatidan foydalanish amaliyoti sezilarli darajada qisqartirildi. Oliy taʼlim tizimidagi mavjud muammolar ochiq tan olinib, ularga nisbatan oshkoralik tamoyili kuchaytirildi. Tizimning shaffofligi va tezkorligi oshirilib, taʼlim va sogʻliqni saqlash sohalaridagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, tegishli vazirliklar, oliy taʼlim muassasalari rahbarlari hamda yetakchi professor-oʻqituvchilar ishtirokidagi ochiq muloqotlar orqali jamoatchilik bilan samarali aloqa yoʻlga qoʻyildi. Maktab oʻqituvchilarining ish haqini oshirish boʻyicha amaliy choralar koʻrildi. Pedagog kadrlarni uy-joy va transport bilan taʼminlash, shuningdek, ularning oila aʼzolariga tadbirkorlik faoliyati uchun imtiyozli kreditlar ajratish tizimi joriy etildi.

2024–2025-yillarga kelib esa bolalarni maktabgacha taʼlim bilan qamrab olish koʻrsatkichi 70 foizdan yuqori darajaga yetkazilishi davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishiga aylandi. Prezidentning Oliy Majlisga Murojaatlarida taʼlim tizimini rivojlantirish strategik vazifa sifatida belgilab berildi. Unda uzluksiz taʼlim tamoyili asosida taʼlimning aynan maktabgacha bosqichdan boshlanishi va inson hayoti davomida izchil davom etishi zarurligi alohida taʼkidlandi. Bu yondashuv jamiyat taraqqiyotida inson kapitalining hal qiluvchi rolini eʼtirof etadi.

Umumiy oʻrta taʼlim tizimi esa uzluksiz taʼlimning markaziy boʻgʻini sifatida oʻquvchilarga zarur bilim, koʻnikma va kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. U nafaqat nazariy bilimlarni, balki mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va amaliy faoliyat malakalarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan. Taʼlim tizimining keyingi bosqichi boʻlgan oʻrta maxsus va kasb-hunar taʼlimi ham mustaqillik yillarida jadal rivojlandi. Aholini oliy taʼlim bilan qamrab olish darajasini

2030-yilga borib 50 % yetkazish, nodavlat oliy taʼlim muassasalari sonini oshirish hamda kredit-modul tizimini keng joriy etish ham konsepsiyaning asosiy yoʻnalishlaridan hisoblanadi. Bu esa taʼlim jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirish, talabalarning mustaqil bilim olish koʻnikmalarini rivojlantirish va taʼlim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa sifatida taʼkidlash joizki, Oʻzbekiston Respublikasida taʼlim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Soʻnggi davrda taʼlim tizimini zamonaviylashtirish, uning sifat darajasini oshirish hamda xalqaro talablarga moslashtirish yoʻnalishida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada maktabgacha taʼlimdan tortib oliy taʼlimgacha boʻlgan barcha bosqichlarda tizimli yangilanishlar joriy etilib, yangi taʼlim muassasalari tashkil etildi va mavjudlari zamonaviy infratuzilma bilan taʼminlandi. Bundan tashqari, pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini oshirish, oʻquv dasturlarini takomillashtirish hamda taʼlim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali taʼlim sifati sezilarli darajada yaxshilanmoqda. Xalqaro

hamkorlikning kengayishi esa milliy ta'lim tizimining global miqyosdagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Kelajakda mazkur islohotlarni izchil davom ettirish, innovatsion yondashuvlarni keng tatbiq etish hamda ta'lim sifatini yanada oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni kuchaytirish mamlakat taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi. Ta'lim tizimidagi ijobiy o'zgarishlar esa yuqori malakali, bilimli va raqobatbardosh yosh avlodni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. *O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida*. Toshkent: O'zbekiston, 2011.
3. Mirziyoyev Sh. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomalar (2017–2025)*.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2017-yil 30-sentabr *Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga oid qaror*.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2018-yil 25-sentabr – «*El-yurt umidi*» jamg'armasini tashkil etish to'g'risida farmon.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2002-yil 20-fevral –«*Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida*» farmon.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 1992-yil – Oliy Attestatsiya Komissiyasini tashkil etish to'g'risidagi farmon.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 1992-yil 2-iyul – «Ta'lim to'g'risidagi» Qonun.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 1997-yil 29-avgust – «*Ta'lim to'g'risidagi*» Qonunning yangi tahriri va «*Kadrlar tayyorlash milliy dasturi*».
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2008-yil 28-yanvar – Toshkent Davlat Universitetiga «*Milliy universitet*» maqomini berish to'g'risida.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. *Ta'lim va ilm-fan sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar (1991–2025)*.
13. O'zbekiston Respublikasi *Fanlar akademiyasi. Yillik hisobotlar (2000–2024)*.
14. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz (1-qism), O'zbekiston, Toshkent, 2018, 85-b.
15. Mirziyoev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. Toshkent, "O'zbekiston, 2019, 29-b.